



ALISHER
NAVOIY

XALQARO JAMOAT FONDI



RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA
MARIFAT MARKAZI



ELTE
EÖTVÖS LORÁND
UNIVERSITY



«АЛИШЕР НАВОИЙ ВА ШАРҚ РЕНЕССАНСИ»

III ХАЛҚАРО
СИМПОЗИУМ
МАТЕРИАЛЛАРИ



MATERIALS OF THE
III INTERNATIONAL
SYMPOSIUM

«ALISHER NAVOI AND EASTERN RENAISSANCE»

09.02.2024

Tashkent, Uzbekistan



**АЛИШЕР НАВОЙЙ
ВА ШАРҚ
РЕНЕССАНСИ**



**III ХАЛҚАРО СИМПОЗИУМ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

"JAVOIR-ILM-NASHR"

ТОШКЕНТ - 2024

УЎК 821.512.133-6

КБК 84(5Ў)

Д 13

**"АЛИШЕР НАВОЙ ВА ШАРҚ РЕНЕССАНСИ"
III ХАЛҚАРО СИМПОЗИУМ МАТЕРИАЛЛАРИ**

**MATERIALS OF THE III INTERNATIONAL
SYMPOSIUM "ALISHER NAVOI AND EASTERN
RENAISSANCE"**

ТАХРИР ҲАЙЪАТИ:

Ш.Сирожиддинов (Ўзбекистон),

Г.Рихсиева (Ўзбекистон),

А.Гўзал (Туркия),

М. Имомназаров (Ўзбекистон),

Б.Пери (Венгрия),

А. Эркинов (Ўзбекистон),

Ғ.Размий (Эрон),

Д.Юсупова (Ўзбекистон),

Қ.Гулкориён (Кипр),

Қ. Содиқов (Ўзбекистон),

Н.Нуров (Тожикистон),

Б. Тўхлиев (Ўзбекистон),

Д. Сойсал (Бельгия),

О.Давлатов (Ўзбекистон)

ISBN 978-9910-9613-9-7

ALISHER NAVOIY VA SAYFIY BUXORIY MUAMMOGA DOIR RISOLALARINING QIYOSIY TADQIQI

Dilnavoz YUSUPOVA,
*filologiya fanlari doktori,
ToshDO 'TAU professori*

Umedullo MAHMUDOV,
*filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori,
Samarqand xalqaro texnologiya
universiteti dotsenti*

Kirish. Renessans, ya'ni uyg'onish davri sifatida baholanadigan temuriylar davrida savdo-sotiq, ilm-fan, madaniyat, me'morchilik, tasviriy san'at, musiqa bilan bir qatorda she'riyat va she'rshunoslik ilmlari yuksak darajada rivojlandi. Temuriy hukmdorlarning ilm va ijod ahli, rassom va hunarmandlarni qo'llab-quvvatlash siyosati turli mamlakatlardan olim va fozillarning, donishmand va hunarmandlarning, usta-me'morlarning bu zaminga kelib muqim o'rnashishiga sabab bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, yangi-yangi ilmiy markazlar, maktablarning paydo bo'lishiga zamin hozirladi. Temuriylar davrining o'ziga xos jihatlaridan biri bu shahzodalarning ham ilm va san'atning turli sohalariga qiziqishlari hamda ushbu sohalarini qunt bilan o'rganganliklaridadir [Yusupova 2019: 20-21; Mahmudov 2022, 30-31]. Jumladan, Mirzo Ulug'bekning ilmi nujum va riyoziyot ilmiga, Boysung'ur va Ibrohim Sultonlarning xat va xattotlikka qiziqishlari ham ushbu ilm va san'at sohalarining taraqqiy topishiga turtki bo'lgan deyish mumkin. Shuningdek, Ibrohim Sultonning muammo ilmiga

ham alohida ragʻbati boʻlib, Sharafiddin Ali Yazdiy uning istagi asosida muammo ilmiga bagʻishlangan “Hulali mutarraz dar fanni muammo va lugʻaz” asarini bitganligi haqida maʼlumot bor [Joʻrayev 2017: 13].

Sheʼrshunoslik ilmlari orasida muammo ilmi alohida oʻrin egallaydi. Biror ism yoki narsa-buyum nomi berkitilishiga asoslangan va berkitilgan soʻz shoirning turli-tuman ishoralari: maʼnodosh yoki shakldosh soʻzlarni topish, bir tildagi soʻzning ikkinchi bir tildagi muoduli (ekvivalenti)ni qoʻllash, soʻzlardagi maʼlum bir harflarni tizib, yangi soʻz yasash va boshqalar asosida topiladigan *muammo* ilmining oʻrta asrlar adabiyotida oʻziga xos oʻrni boʻlgan. Hatto oʻsha davr shoirlarining iqtidori muammo ilmini qay darajada oʻzlashtirganligi bilan baholangan. Temuriy podshoh va shahzodalar orasida ham ushbu ilmni egallashga ishtiyoq kuchli boʻlgan.

Bu davrda muammo ilmiga bagʻishlangan koʻplab ilmiy risolalar ham yaratilgan boʻlib, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Sayfiy Buxoriy va boshqalar mazkur janrning qonun-qoidalarini ishlab chiqdilar. Bu asarlar orasida Sayfiy Buxoriy (vaf. 1504)ning “Risolai dasturi muammo” asari zamonaviy sheʼrshunoslik nuqtai nazaridan maxsus tadqiq etilmaganligi va oʻz davri risolalari bilan qiyosan tadqiq etilmaganligi jihatidan alohida ajralib turadi. Biz ushbu maqolada Sayfiyning mazkur asarini Alisher Navoiyning “Mufradot” asari bilan qiyoslashni maqsad qilganmiz.

Sayfiy Buxoriy va uning adabiy merosi haqida. Sayfiy Buxoriy asli Buxoroda tavallud topgan adabiyotshunos olim va shoir boʻlib, tahsil olish uchun Hirotga kelgan. Hirotida oʻqib yurgan kezarida uning isteʼdodini payqagan Alisher Navoiy boʻlajak shoirning tarbiyasiga alohida eʼtibor beradi, natijada Sayfiy mohir ijodkor va muammonavis boʻlib etishadi. Lekin shuhrat yuk-

ini ko'tarolmay, kibr-u g'urur paydo qiladi, sharobxo'rlikka beriladi. Navoiyning nasihatlarini ta'sirida yana to'g'ri yo'lga kirib, go'zal asarlar yaratadi [Alisher Navoiy: qomusiy lug'at 2016: 495]. Sayfiy haqida Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" va Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarlarida ma'lumotlar keltiriladi. Xususan, Navoiy tazkiraning 3-majlisida Sayfiyning she'rlari Hirot ahli orasida mashhur bo'lganligi, muammo ilmiga doir risola bitganligi haqida shunday yozadi: "Mavlono Sayfiy buxorolig'dur, andin Hiri shahrig'a keldi va aksari kutubi mutadovilotni ko'rdi va tahsil asnosida nazmg'a mashg'ul bo'ldi. Andoqki she'ri shuhrat tutti va masal tariyqin bag'oyat yaxshi aytti... Muammo fanida ham risola bitibturur va "قبول" ismig'a bu aningdurkim:

Баски дил ҳар дам ба сӯи зулфи чонон мешавад,

То дили худ чамъ месозам, парешон мешавад" [Navoiy 1997: 72-73]

(Mazmuni: Ko'nglimning tinimsiz yor zulfi tomon bo'lishi sabab, uni to joyiga qo'yguncha "yor zulfi kabi" parishon bo'ladi).

Bobur "Boburnoma"da Sayfiyning mullo ekanini alohida ta'kidlab, uning ikki devoni, aruz ilmiga doir risolasi borligini aytib o'tadi, ammo muammoga doir risolasi haqida ma'lumot bermaydi [Bobur 1989, 126]. Aftidan, Bobur Sayfiyning bu risolasidan bexabar bo'lgan.

Sayfiydan bizgacha 2 ta devon hamda «Risolai aruz», «Risolai muammo» va «Risolai musiqiy» kabi ilmiy asarlar meros qolgan.

Adabiyotshunoslikda Sayfiyning "Risolai muammo" asari bizgacha etib kelmagan degan ma'lumotlar bor [Mirzoev 2021, 64]. Ammo so'nggi izlanishlar asar bizgacha etib kelganini va uning hozircha ikkita (?) qo'lyozma nusxasi mavjudligini ko'rsatmoqda.

Sayfiy “Risolai dasturi muammo”sining qo‘lyozmalari haqida. Fanda Sayfiy Buxoriy “Risolai dasturi muammo” asarining qo‘lyozmalari haqidagi ma'lumotlar u qadar ko‘p emas. Shu kunga qadar Sayfiy Buxoriy faoliyatiga doir aksariyat tadqiqotlarda olim tomonidan muammoga bag‘ishlab yozilgan risola mavjudligi taxmin qilingan va ilmiy axborotlarda bu xususda ma'lumotlar berilgan edi. Ammo ushbu asarning qayerda, qaysi kutubxonada saqlanishi haqida aniq ma'lumotlar uchramas edi.

Izlanishlarimiz davomida Sayfiy Buxoriyniki deb taxmin qilinayotgan “Risolai dasturi muammo” asarining Eron Islom Respublikasida saqlanayotgan bir qo‘lyozmasini aniqlashga muvaffaq bo‘ldik. Ushbu asar Sho‘royi Majlis kutubxonasi qo‘lyozmalar fondida IR 10-25206 inventar raqami ostida saqlanib kelmoqda. Qo‘lyozma qattiq, jigarrang tusdagi muqovada bo‘lib, umumiy 176 sahifadan iborat. Qo‘lyozma manbaning o‘lchamlari 9x14 sm. Asar forsiy tilda nasta‘liq xatida bitilgan. Har bir sahifaga matn o‘n bir qatordan joylashtirilgan. Mazkur asar taxminimizga ko‘ra, Rashididdin Vatvotning “Aruzi manzum” asari bilan birgalikda kitobat qilingan. Qo‘lyozmaning avvalida hamd va na’t bilan taxmin qilganimiz Rashididdin Vatvotning “Aruzi manzum” asari boshlanadi hamda qo‘lyozmaning 129-sahifasigacha davom etadi. Ahamiyatli jihati shundaki, qo‘lyozmaning kitobat qilingan sanasi aynan “Aruzi manzum” so‘ngida (tammatul kitob) hijriy hisob bo‘yicha 886 yil, zulqa‘da oyining 20 sanasiga mos keladi. Mazkur sanani milodiy yil hisobiga o‘girsak, 1482-yil 19 -yanvarga to‘g‘ri keladi. Undan so‘ng basmala bilan “Risolai dasturi muammo” boshlanganini kuzatish mumkin. Asar so‘ngida tammatul kitob mavjud bo‘lib, u “Vallohi a‘lam bis savob Va ilayhil marja’ val ma‘ob” jumalari bilan yakunlanadi. Tammat qismida yakunda muhr urilgani ko‘rinadi, ammo

muhrdagi yozuvlar xiralashganidan ularni o‘qishning imkoni bo‘lmadi. Qo‘lyozmaning kotibi noma'lum.

Muammo ilmi bo‘yicha mutaxassis olim J.Jo‘rayevning “Buxoro shoirlari ijodida muammo janri” nomli maqolasida Sayfiy qalamiga mansub “Risolai muammo” asari qo‘lyozmasining yana bir nusxasi O‘zR Sharqshunoslik instituti fondida 12146/IV inventar raqami ostida saqlanayotgani haqida ma'lumot beriladi [Jo‘rayev 2012: 16]. Lekin bu qo‘lyozmada ko‘rsatilgan asarning Sayfiy Buxoriyga tegishli ekanligi haqida katalogda ham, qo‘lyozma matnida ham hech qanday ishora yo‘q. Asarning tarkibi va mazmuni ham biz foydalangan qo‘lyozmadan farq qiladi.

Risolalarning yaratilish tarixi haqida. Alisher Navoiyning muammo janri nazariyasiga bag‘ishlangan asari «Mufradot» deb atalib, hijriy 890 – milodiy 1485-yilda yozib tugallangan. Navoiy asarning kirish qismida o‘z risolasining nomlanishi haqida shunday yozadi: *“Ба чун ин муҳаққар дар ин фан ба мушобиҳаи «алиф» ва «бе» буд, мусаммо ба муфрадот намуд* [Navoiy 2003, 369].

(Mazmuni: Bu kamina ushbu fanda «alifbe» misolida bo‘lganligim uchun (risolaning) otini «Mufradot» deb nomladim). Ma'lumki, alifboni o‘rganishda harflarning yakka shakllari va birdan o‘ngacha raqamlarning yozilishi «Mufradot» deyiladi. Bundan tashqari, risolada muammo qoidalariga misol sifatida keltirilgan 121 ta muammoning hammasi fard shaklida, fard so‘zining ko‘plikdagi shakli mufradotdir¹. Navoiy muqaddimada o‘zidan avval yaratilgan asarlarning murakkabligi va ulardagi kamchiliklar haqida gapirar ekan, risolada iloji boricha ularni bartaraf qilishga intiladi. G‘oyat kamtarlik bilan uni yaratishdan maqsad olimlar e‘tiboriga havola qilish emas, balki keng xalq ommasi, xususan, yosh avlodga muammo

¹ “Mufradot” asaridan iqtiboslar keltirishda L.Zohidov tarjimasi va izohlaridan foydalanildi.

sirlarini o'rgatish ekanligini ta'kidlaydi:

“...агарчи ин мухтасарро қобилияти он нест, ки дар силки расоил дарояд ва ин муҳаққаро салоҳияти он нест, ки ба чашми аҳли биниш дарнамояд. Валекин ба чиҳати тасҳили таълими аъмол хондани атфолро шояд”

(Mazmuni: “bu muhtasar (asar)ning risolalar qatoriga kirish qobiliyati va bu kaminada uni olimlar ko‘zlariga ko‘rsatish salohiyati bo‘lmasa ham, bolalarga muammo amallarini o‘rganishlarini osonlashtirish uchun yarashi mumkin».

Risolaning yozilish tarixi haqida «Xamsat ul-mutahayyirin»da ham ma'lumot beriladi. Unda aytilishicha, bir kuni Alisher Navoiy o‘zidan avval muammo haqida yaratilgan asarlar va ulardagi murakkabliklar haqida o‘ylab o‘tirganida, uning huzuriga Abdurahmon Jomiy tashrif buyuradi. Navoiy unga muammoga doir sodda va oddiy xalq ommasi uchun tushunarli bo‘lgan asar yozmoqchi ekanligini aytadi. Shunda Jomiy o‘zi ham anchadan beri shu haqda o‘ylab yurganini ta'kidlab, qisqa muddat ichida «Risolayi muammoyi manzum» asarini yaratadi va Alisher Navoiyga ko‘rsatadi. Navoiy asarning ancha murakkab (xalq ommasi uchun tushunarsiz) ekanligini ko‘rib, o‘zi «Risolayi muammo» asarini yozadi va Jomiyga tuhfa qiladi. Jomiy asarni yuqori baholab, o‘g‘li Ziyovuddin Yusuf uchun darslik sifatida tavsiya etadi [Yusupova 2016: 202].

Sayfiy Buxoriyning “Risolai dasturi muammo” asari ham taxminanshuyillaroralig‘idayozilgan. Asarhaqidagi ma'lumotlar Navoiyning “Majolis un-nafois” asarida keltirilganligini hisobga olsak, risola Navoiy tazkirasi tuzilganidan ilgariroq yozib tugallanganligi oydinlashadi. Sayfiy risolaning kirish qismida uning yaratilish sabablari haqida shunday yozadi:

این فقیر حقیر کمتر از نقیر کم بضاعت که چون جوانان را با شعار و معمیات رغبتی می افتد بنده را نیز این سوس درس می بود مدت مدید و عهد بعید هر جا شعری یا معمایی می شنودم آنرا می نوشتم و در معانی آن و در دقایق آن می رفتم بتقدیر طاقت خود و بعضی از دقایق که مشکل می شد از بعضی ظرفا حل آن مشکل می کردم تا بجدی مداومت آن نمودم که بعضی از دوستان بنابر حسن ظن خود اعتماد کونه بر احوال و اقوال این فقیر پیدا شد و بکرات این فقیر التماس می کردند که در بیان معما قاعده چند باید که در قلم آوری و این فقیر بنابر قلت بضاعت خود احتراز می کردم تا نباید که سبب ملامت و موجب ندامت گردد تا روزی دوستی بنابر حسن عقیدتی که در باره این فقیر داشت و غایت رغبتی که با این فن بودش بدین فقیر الزام گردد چند اصل از قواعد معما باید که بنویسی امثال امراد فرض عین بود ملک عین فرض بود کلمه چند از سر تعجیل در قلم آورده شد

(Mazmuni: bu ojiz, faqir va bechora banda begunoh yoshlarning muammo hamda she'rga rag'batlari ziyodaligini ko'rib, ong-u shuurimda unga qiziqish ortar, uzoq muddat har erdagi, she'r va muammo eshitsu uni yozib qo'yar, uning nozikliklari, echish usullari haqida o'ylar edim. Toqatim etgan cha ba'zi ahli zura foning mushkul muammolari echimini aniqlashga intilardim. Ba'zi do'stlarim, xususan, Husaynning ishonchi bilan faqirda shunday bir ahvol hosil bo'ldiki, faqirdan takror va takror muammo qoidalarini qalamga oling degan iltimoslar bo'ldi va bu faqir tanqid va malomatga qolmaslik uchun bu ishni ortga suraverdim. Ammo faqirga ishonchi komil do'stim, mazkur fanga juda rag'batli Husayn muammo ning asosiy qoidalarini misollar yordamida tasnif etishni qattiq ta'kidladi. Uning amri

bandaga farzi ayn, balki ayni farz bo‘lganidan bir necha kalom shoshilinchda qalamga olindi” [Sayfiy, IR10-2506: 131-132 bb]².

Mazkur muqaddimadan ma'lum bo‘ladiki, Sayfiyning ushbu asari ham Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiyning risolalari kabi xalq ommasi, jumladan madrasalarda tahsil ko‘ruvchi yoshlar uchun qo‘llanma o‘laroq yaratilgan. Zayniddin Vosifiyning “Badoye‘ul vaqoye” asarida keltirilishicha, o‘sha davrda Sayfiy Buxoriyning muammo ilmiga doir risolasi xalq orasida juda mashhur bo‘lgan:

“Bir kuni bir guruh shoir-u fozillar Hirotning Bozori Malikida sayr qilib yurgan edik, Hofiz Husayn degan bir badfe‘l fitnachi o‘tib qoldi. Qo‘lida bir kitob bor edi. Men uning qanday kitobligini so‘radim. U: “Sayfiy Buxoriyning “Risolai muammo”si, dedi. O‘shanba barchamizning maqsadimiz va niyatimiz Amir Alisherning kimyoasar nazariga tushish edi. Yaqinlashib qolganimiz uchun u janobga muammo to‘g‘risida hech bir vasila demadik. Keyinchalik Hofiz G‘amzani uchratib, o‘sha risolani ko‘chirib olish uchun marhamat qilib vaqtincha berib turishini iltimos qildim. Hofiz kulib, dedi:

Мормушу гулоб – яъни чи?

Гўши кару рубоб – яъни чи?

(G‘or sichqoni qayda-yu gulob qayda. Kar quloq qayda-yu rubob qayda?)” [Vosifiy 1979: 88]. Vosifiyning bu asaridan ma'lum bo‘ladiki, Sayfiyning muammoga doir risolasi o‘z davridayoq nihoyatda qadrli va noyob kitoblardan bo‘lib, Zayniddin Vosifiy uni zamondoshi Hofiz G‘amzadan olishga muyassar bo‘la olmagan.

² Keyingi iqtiboslar shu nusxadan keltiriladi. Tarjima maqola mualliflariga tegishli.

Risolalarning tarkibiy tuzilishi, g‘oyaviy mundarijasi

“Mufradot” asarining tarkibi

“Mufradot” muqaddima, asosiy qism va xotimadan iborat. Muqaddima ikki baytli quyidagi masnaviy bilan boshlanadi:

Бисмиллаҳир-рахмонир-рахим,
Номаи фатҳаст зи ҳайи қадим.
Таъмия дар исми мусаммоست ин,
Аллоҳ-Аллоҳ чи муаммоست, ин.

(Mazmuni:

“Mehribon va Rahimli Ollohning nomi bilan” jumlasidan azaldan barhayot (Alloh)dan (bizga berilgan) g‘alabani boshlanish nomasidir. Bu atalgan (nomlangan) ismning yashiringanidir. Olloh-Olloh, bu qanday muammodir?)

Navoiy ushbu baytlarda g‘oyat ustalik bilan «Mufradot» muammo haqidagi asar ekanligi, «muammo» so‘zi «yashiringan» degan ma‘noni bildirgani uchun «Bismillahir- rohmānir-rahim» iborasiga Olloh butun qudrati bilan yashiringanligi, uni har qancha sharhlagan bilan asl mohiyatiga etish mushkul, ya‘ni muammo ekanligini ta‘kidlaydi.

Asarda muammo amallari uch qism – *a‘moli tas‘hiliy* (osonlashtirish amallari), *a‘moli tahsiliy* (hosil qilish amallari) va *a‘moli takmiliy* (mukammallashtirish amallari)ga bo‘linadi. **A‘moli tas‘hiliy**ning amallari to‘rtta – intiqod (saralash), tahlil (hal qilish, ajratish), tarkib (biriktirish) va tabdil (o‘zgartirish). Intiqod amalida so‘zning turli harflarini saralash orqali muammo hosil qilinadi. Masalan, ODAM ismida bosh harflarni saralash bilan bog‘liq muammo keltirilgan bo‘lib, u quyidagicha:

Дили моро чу хоҳӣ бозчусташ,
Зи оху дарду меҳнат чӯ нахусташ.

(Mazmuni:

Dilimizni yana axtarmoqchi bo‘lsang,
Oh, dard, mehnatdan birinchisini qidir)

Bu muammoni echish uchun oh, dard, mehnat so‘zlarining bosh harflari olinsa, ODAM ismi kelib chiqadi.

Yoki VALAD ismida

Чун кунй гаштй чаман баҳри тараб,
Пои сарву гулу шамшод талаб.

(Mazmuni: Shodlik uchun chaman sayriga chiqsang, sarv, gul va shamshod ostini izla) misralari keltirilgan bo‘lib, ushbu baytda “sarv”, “gul” va “shamshod” so‘zlarining “osti”, ya’ni oxirgi harflari – “vov” (“v”), “lom” (“l”) va “dol” (“d”) harflarining birikmasidan “Valad” ismi hosil bo‘ladi.

A'moli tahsiliy (hosil qilish amallari) esa sakkizta bo‘lib, ularga tansis va taxsis (ochiq qilish va xoslashtirish), tasmiya (nomlash), talmeh (nazar tashlash), tarodif va ishtirok (mosini va o‘xshashini olish), kinoyat (yashirish), tas’hif (yozuvda xato qilish), ištiora, tashbih va hisob qoidalari kiradi.

Masalan, *tasmiya* qoidasi bo‘yicha, arab alifbosidagi harflar nomini bo‘g‘in shaklida aytib, undan harf shaklini olish yo‘li bilan yoki harf shaklini keltirib, uning nomini bo‘g‘in shaklida olish yo‘li bilan ham nom hosil qilinadi. Birinchi usul bo‘yicha “Kofiy”, “Salom” ismi hosil bo‘ladigan muammolar, ikkinchi usul bo‘yicha “Obid” va “Shohid” ismi hosil bo‘ladigan muammolar, ikkala usul qatnashganligiga “Mu’in” ismi hosil bo‘ladigan muammo misol keltirilgan [Alisher Navoiy: qomusiy lug‘at 2016: 376-377]. Kofiy ismiga bitilgan muammoni olib ko‘raylik:

Тамошои рӯяш гумонам набуд,
Зи рӯи карам ёр ораз намуд.

(Mazmuni:

Uning yuzini tomosha qilishda gumonim yo‘q edi.

Karam yuzasidan yorim yuzini ko'rsatdi).

Bunda «Karam» so'zining yuzi sifatida “k”, ya'ni «kof» harfi olinadi. Unga «yor»ning yuzi, ya'ni yo harfi qo'shilsa, “Kofi” ismi kelib chiqadi.

Muammoni echish amallarining uchinchisi **a'moli takmiliy**, ya'ni mukammallashtirish amallari deb atalib, uning o'zi yana 3 turga bo'linadi: ta'lif, isqot, qalb. *Ta'lif* (ulash)ga ko'ra, misradagi ba'zi so'zlarning bir-biri bilan qo'shilishi natijasida yashiringan ism hosil qilinadi. Masalan:

Чун бибарад чом ба сӯи даҳан,
Қатра зи лаб пок кунад моҳи ман.

(Mazmuni:

Mening oyim jom (qadah)ni dahan (og'zi) tomon olib borsa, Labidagi qatralarni toza qiladi)

Bunda “jom” so'zi “dahan” (og'iz) tomonga, ya'ni “d” tomonga olib boriladi va “jomid” so'zi hosil bo'ladi, ikkinchi misrada nazarda tutilgan labdagi qatra, ya'ni nuqta tozalansa (olib tashlansa), “Homid” ismi kelib chiqadi.

Asarda shu tarzda 3 amal, 15 qism va 48 ta uslub qoidalari va ular bilan bog'liq holda 121 ta muammo va uni echish usullari ko'rsatib beriladi. Risolada muammoning turli uslub qoidalari yuqorida ko'ringanidek, ixcham va tushunarli tilda bayon qilib berilganligi uchun asar o'z davri va undan keyin ham keng shuhrat qozondi.

“Risolai muammo”ning tarkibiy tuzilishi

Sayfiyning mazkur risolasi muqaddima, asosiy nazariy qism va xotimadan iborat bo'lib, muqaddimada an'anaviy hamd va na'tdan so'ng asarning yozilish sabablariga to'xtalib o'tiladi. Asosiy qismda muammo ilmiga oid 16 qoida misollar asosida tushuntiriladi.

J.Jo'rayevning tadqiqiga ko'ra, muammoga doir risolalarda

muammo amallari aksariyat hollarda uchga bo'lib (tahsiliy, takmiliy, tas'hiliy) tasnif qilinadi, ba'zi mualliflar esa bularga taz'iliy degan yana bir guruhni qo'shadilar [Jo'rayev 2017, 107-108]. Navoiy asarida ham muammo amallari uchga bo'linganiga guvoh bo'ldik. Sayfiyning risolasida esa bunday tasnifni uchratmaymiz, u muammo amallarini mazmun-mohiyatiga ko'ra 16 qoida asosida tushuntiradi. Bu 16 qoidani shartli ravishda quyidagi jadvalda aks ettirish mumkin:

Qoida raqami	Qoidaning nomi	Qoidaning mazmun-mohiyati
1.	Jaml hisobi	Arab yozuvidagi 28 harfni abjad hisobi asosida keltirish orqali muammo hosil qilish
2.	Burj raqamlari bayonida	Sharq ilmi nujumidagi 12 burjning oxirgi harfini hisobga olib, muammoni echish
3.	Yulduzlarning raqamlari bayonida	7 sayyora nomidagi so'nggi harfni olib, muammo hosil qilish
4.	Hafta kunlari raqamlari bayonida	Haftaning har kunida muayyan bir harfni uning belgisi sifatida olib, muammoni vujudga keltirish.

5.	Handasa raqamlari bayonida	Handasa ilmiga oid o'nta raqam (1 dan 10 gacha) asosida muammoni hosil qilish
6.	Yil va oylar bayonida	Yilni 360, oyni to'liq holda 30 deb olib, ushbu raqamlarning abjad hisobi asosida muammoni echish
7.	Lug'at bobida	Xalq va jamoat orasida mashhur bo'lgan muayyan so'zni olib, uning sinonimi yoki boshqa tildagi forsiy (turkiy) varianti, ayrim hollarda aynan o'zini nazarda tutish
8.	Tajnis va tas'hif bayonida	Shaklan bir xil, faqat nuqtalari orqali farq qiluvchi so'zlarga nuqta qo'shish yoki nuqtalarini olib tashlash orqali muammo hosil qilish

9.	Qalb va aks bayonida	Soʻzlardagi harflarning oʻrnini turlicha oʻzgartirish: teskari qilib yozish, boshi yoki oxiridagi harflarning oʻrnini almashtirish hisobiga muammo hosil qilish
10.	Jumla qismlarining nomlari bayonida	Jumlaning qismlarini nomlash (birinchi soʻz matla' yoki sar, ikkinchi yoki oʻrtadagi soʻzlar qalb yoki dil, oxirgi soʻz poy, zil...) orqali muammo hosil qilish
11.	Harflarning tashbihlari bayonida	Harflarning shakllarini biror narsaga oʻxshatish orqali muammo hosil qilish
12.	Narsalarni kichraytirish bayonida	Forsiy kalimaning oxiriga kof (-k) harfini orttirish orqali muammo paydo qilish
13.	Harflarning isqoti bayonida	Matndagi soʻzning bir boʻlagini (harf yoki boʻgʻinni) tushirib qoldirish orqali muammoni echish

14.	Zidd va naqiz bayonida	Tasdiq soʻzga teskari boʻlgan inkor shaklni (soʻzni) qoʻllash orqali muammoni echish
15.	Hurufi Ka'b bayonida	Matnda keltirilgan sonni oʻziga koʻpaytirish orqali yangi son hosil qilish va bu sonni harflar vositasida bayon qilish orqali muammoni echish
16.	Tartibga rioya qilish bayonida	Kalimalarda harflardan birortasini orttirish orqali muammoni echish

Yuqoridagi qoidalarning aksariyati Sayfiydan avvalgi risolalarda boshqa nomlar bilan boʻlsa-da, keltirib oʻtilgan. Xususan, jaml hisobi, tajnis va tasʻhif, qalb va aks, tashbih, isqot, tartibga rioya qilish kabi qoidalar Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiyning asarlarida uchraydi. Bunda *jaml* hisob amalining *uslub* harfiy turi nomi bilan, *tajnis va tasʻhif* tasʻhif nomi bilan, *qalb va aks* umumiy tarzda *qalb* nomi bilan, *tashbih* va *isqot* aynan, *tartibga rioya qilish qoidasi tashdid* va *tahfif* nomi bilan keltirilgan [Joʻrayev 2017].

Mazkur risolaning 7-qoida – “Lugʻat bobida” deb sarlavhalangan qismidan oʻrin olgan quyidagi muammoga eʼtibor qaratsak:

تسر خورشید و پای آفتاب
نام آن سرو گلخ انگیزی

بتی کر روی او مه در حجابست
باده در قلب آتش ار ریزی

Буте гар рўйи у маҳ дар ҳижобаст

*Сари хуршеду пойи офтобаст
Бода дар қалби оташ ар рези
Номи он сарви гулрух ангези.*

(Mazmuni:

U shunday butki uning oldida oy yuzi hijobdadir
Xurshidning boshi-yu oftobning poyi (oyog‘i)
Agar otash qalbiga boda quysang
O‘shal sarvi gulruxning nomini topasan).

Yuqoridagi jadvalda keltirganimizdek, bu muammo asosan turkiy va forsiy tildagi mutarodiflar, ya'ni sinonimlar asosida yechiladi. Mazkur muammoning halli “Usmon” bo‘lib, echim ikkinchi baytdagi ishoralarga ko‘ra chiqadi. Bodaning sinonimi “araq”dir. Undan “ayn” harfi olinadi. “Otash” so‘zining qalbi, ya'ni o‘rtasidagi harfi - "te"ning ustiga baytdagi ishoraga ko‘ra, "bodadan tomizilsa", u "se" harfiga aylanadi. "Nom" so‘zining harflari qalb amaliga ko‘ra o‘rin almashtirilsa, "mon" bo‘ladi, bu so‘zni oldin hosil qilingan harflarga ulansa, عثمان ismi kelib chiqadi.

E'tibor qaratilsa, Sayfiy risolasida Navoiy risolasidan farq qilib, taqdim etilgan muammolarning echimlari aniq va oshkor tarzda, qoidalar ketma-ketligi asosida keltirilmaydi. Sayfiy muayyan qoidani izohlar ekan, uning echish usulini keltirmaydi, shunchaki unga ishora qilib ketadi. Shu jihatdan uning risolasi Navoiy risolasiga nisbatan murakkab uslubga ega.

Xulosa

Alisher Navoiyning “Mufradot” hamda Sayfiy Buxoriyning “Risolai muammo” asarlarini qiyoslab o‘rganish asnosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Har ikkala risola ham qo‘llanma xarakterida bo‘lib, mualliflar muammo ilmini oddiy xalq ommasi, jumladan yosh avlodga o‘rgatishni bosh maqsad qilib olganlar va

imkon darajasida muammo amallarini qisqa va lo'nda tarzda ifodalashga uringanlar. Har ikki risola ham davr ehtiyojidan kelib chiqib forsiy tilda yozilgan.

2. Alisher Navoiy risolasida muammo uchun tanlangan baytlar asosan fard shaklida bitilgan. Sayfiyning asarida esa bir baytdan bir necha baytgacha bo'lgan muammolar ham keltiriladi.

3. Alisher Navoiy muammo amallarini an'anaviy tarzda uchta katta guruhga ajratib tushuntiradi, Sayfiy esa umumiy tarzda ularni 16 qoidaga bo'lib izohlaydi.

4. Navoiy risolasida Sayfiy risolasidan farqli o'laroq, turkiy ismlar asosida yechiladigan muammolar ham keltirilgan. "Qaro", "Temur", "Bek" kabi ismlar shular jumlasidandir.

5. "Mufradot" asarida muammoning turli uslub va amallari ixcham, tushunarli tarzda bayon qilib berilgan. Muammo amallariga keltirilgan misol muammolarni yechish, keyin keladigan qoidalarni bilishni talab etmaydi. Ularning yechilishi shu muammo qoidasi va oldingi o'quvchi bilib olgan qoidalarga tegishli bo'ladi. Sayfiy risolasi esa bir oz murakkab uslubda bo'lib, muallif muayyan qoidani izohlar ekan, uning yechish usulini keltirmaydi, balki unga shunchaki ishora qilib ketadi. Boshqacha aytganda, kitobxon Sayfiy risolasida keltirilgan qoidalarni eslab qolish orqaligina ularni amalda qo'llash imkoniga ega bo'lsa, "Mufradot"da muallif sodda va tushunarli uslubni qo'llab, o'quvchi zehning o'ta toliqishiga emas, balki undagi nazmiy "o'yinlar"dan zavqlanishiga e'tibor qaratgan va bunga erisha olgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Алишер Навоий. Мажолис ун-нафоис. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1999. Т.13.
2. Алишер Навоий. Хамсат ул-мутаҳаййирин. Ҳолоти Саййид Ҳасан Ардашер. Ҳолоти Паҳлавон Муҳаммад. Назм ул-жавоҳир. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 1999. Т.15.
3. Алишер Навоий. Муфрадот. МАТ. 20 жилдлик. – Тошкент: Фан, 2003. Т.20. – Б. 369 – 420.
4. Алишер Навоий: комусий луғат. 1 – 2-жилдлар / Масъул муҳаррир Ш.Сирожиддин. – Тошкент: Шарқ, 2016.
5. Восифий Зайниддин. Бадоеъул вақоеъ – Нодир воқеалар / Форсайдан Н.Норқулов таржимаси. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1979.
6. Жўраев Ж. Бухоро шоирлари ижодида муаммо жанри // Филология масалалари, 2012. – № 1. – Б. 11-16.
7. Жўраев Ж. Шарафиддин Али Яздийнинг “Рисолаи муаммо” асарининг текстологик ва қиёсий-типологик тадқиқи. – Тошкент, 2017.
8. Захидов Л. “Рисолаи муфрадот” Алишера Навои и его муаммо. Автореф. дисс... канд.филол.наук. – Ташкент, 1970.
9. Зоҳидов Л. Алишер Навоий ижодида муаммо жанри. Тошкент, 1986.
10. Маҳмудов У. Темурийлар даври муншаотнавислигида матн тузиш анъанаси. – Тошкент: Tubo nashr, 2022.
11. Мирзоев Х. Сайфий Бухорий ва унинг “Аруз” рисоласи. Фил. фан.бўйича фалс.докт. дисс... – Самарқанд, 2020.
12. Sayfiy Buxoriy. Daʼsturi muammo. Eron Islom Respublikasi Majlisi Shōroyi Islomiy kutubxonasida saqlanayotgan qo‘lyozma. Invertar raqami: IR 10-2506.
13. Хондамир Ғиёсиддин бинни Ҳумомиддин. Макорим ул-ахлоқ. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1981.
14. Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш даври адабиёти. – Тошкент: Tamaddun, 2016.
15. Юсупова Д.Р Темурийлар даври арузга доир рисоаларнинг қиёсий таҳлили. – Тошкент: 2019.